

REAL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Q.Majidov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

N.Qo'chqorov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Annotatsiya:

maqolada iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda investitsion jarayonlarning ahamiyati, raqamli platforma, raqamli ma'lumotlar kabi qator unsurlar ko'rsatilgan. Iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish orqali mamlakatimizdagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Milliy iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri natijasi, investitsion jarayonlarning o'zgarish ko'rsatkichlari ifoda etilgan. Investitsion jarayonlarni o'sishini sekinlashtiruvchi qator to'siqlar bayon etilgan va ularni bartaraf etishga oid takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, raqamli platforma, raqamli ma'lumotlar, real investitsiya, modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillar Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot korxonalarining ham ichki, ham xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari muhim o'rin egallagan, chunki globallasuv sharoitlarida bu masala muhim ahamiyatga ega. Albatta, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash zaruriyati bevosita Ozbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadlari, korxonalar xo'lik faoliyatining makrova mikrodarajadagi sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsada, xalqaro darajada bozor raqobatining keskinlashuvining ta'sirini inkor etish mumkin emas.

Real investitsiyalar barcha turdagi moddiy va intellektual boyliklarning tadbirkorlik faoliyati ob'yektlariga yo'naltirilishidir. Bu qo'yilmalar daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishni ta'minlashi zarur. Syunga muvofiq holda iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar, birinchidan, avvaldan jamg'arilgan mablag'larni kapitalni ko'paytirish maqsadida tadbirkorlik ob'yektlariga joylashtirishni bildirsa, ikkinchidan, investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsion faoliyat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Jamg'arilgan mablag'lar investitsiya sifatida real iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri yetib bormasdan, bu moliyaviy vositachilar

orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda investitsiyalar dastlab moliyaviy investitsiyalar ko'rinishida maydonga chiqadi va so'ngra real investitsiyalarga aylanadi. Shuningdek, real investitsiyalar asosan kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda yangi qurilishlarga, kengaytirishga, jihozlashga, uskunalari, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham iqtisod fanda va amaliyotda "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlarining Mutlaq bir hiltushunchalar emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligi nazarda tutiladi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan kengroq ma'noda qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy darajada olib qaralganda, real investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zahiralarning o'sishiga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpxarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Real investitsiyalar – joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YaIM ning bir qismidir. O'zbekistonning iqtisodiyotida real investitsiyalar hajni muttasil ravishda oshib bormoqda.

Iqtisodiy rivojlanishda sanoatning qayta ishlovchi korxonalarini qo'shilgan qiymat yaratuvchilar sifatida o'z o'rniga ega. To'qimachilik sanoatida 370 ming kishi mehnat qilmoqda va 1.6 mlrd AQSh dollari hajmida mahsulot eksport qilinmoqda. Yaqin uch yilda eksport hajmi ikki baravar oshirilishi ko'zda tutilmoqda. 2020 yildan paxta tolasi eksporti to'xtatildi va u to'la mamlakat korxonalarida qayta ishlanmoqda. Tarmoqda ichki moliyaviy resurslar bilan bir qatorda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilish natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIM dagi ulushi 2021 yildagi 39.0 foizdan 2022 yilda 40.5 foizgacha oshdi.

Iqtisodiyotning erkinlahtirilishi natijasida investitsion jarayonlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga, hududlarda va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Ularning amalga oshirilishi YaIM ning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, aholi bandligini va farovonligini oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyoti strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rtaga qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga olmoqda. Bular orasida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar negiziga ko'chirish va samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Real investitsiyalar korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga, texnik-texnologik yangilanishga qaratiladi. Shuning uchun yaratilgan yangi quvvatlar hududning iqtisodiy ishlab chiqarish va sotish salohiyatini rivojlantiradi. Natijada yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va assortimentini amalga oshiriladi.

Mamlakatda iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish natijasida olib borilayotgan izchil tarkibiy siyosat iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Koronavirus pandemiyasi ta'siri sharoitlarida ham Samarqand viloyatida iqtisodiy taraqqiyot va investitsion jarayonlarda erishilgan ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanib qoldi.

Samarqand viloyatida 2022 yilda 3170.4 mlrd.so'm hajmida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritildi, shundan to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari 3066.1 mlrd.so'm (96.7%), qolgan 104.3 mlrd so'm. (3.3 %) boshqa investitsiyalar o'zlashtirildi. Inflyatsiya sur'atlarini e'tiborga olganda viloyatda real investitsiyalash jadal kengayib bormoqda. Uning natijasida 2022 yilda 25.8

mingdan ortiqroq ish o'rinlari yaratildi. 2021-2022 yillarda viloyatdagi 462 ta mahallalarida 1279 ta 30.4 trln.so'mlik investitsion loyihalar ishga tushirilishi ko'zda tutilgandi. Asosan viloyatning iqtisodiy rivojiga quyidagi sohalarni rivojlantirish hisobga olingan: sanoat-qurulish materiallarini ishlab chiqish; tekstil sanoati; elektrotexnika sanoati; oziq-ovqat sanoati; kimyo sanoati; metallurgiya sanoati.

Davlat rahbari tomonidan "URGUT" erkin iqtisodiy zonadagi maxsus innovatsion iqtisodiy zona tajribasini bosqa tumanlarda ham joriy qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Hozirgi sharoitlarda mahalliy resurslar bilan birga hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ular orqali yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanish samarali ekanligi ayonbo'lmoqda. Shu bilan birga, agar hududda yoki korxonada ishlab chiqilgan texnologik va institutsional innovatsiyalar xalqaro miqyosda e'tirof etilsa, rivojlanish kreativ xarakterga ega bo'ladi va yangi mazmundagi daromadlar (renta,royalty ko'rinishida) keltirishi mumkin. Kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar o'zining iqtisodiy samaradorligini namoyish etmoqda.

Investitsion jarayonlarning natijalari tufayli viloyat eksportining hajmlari va tarkiblarida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. 2021 yilda 68.2mln.\$ tovar eksportga chiqarilgan bo'lsa, 2022 yilda viloyatda eksport hajmlari 224,8 mln.\$ ni tashkil qildi. Jumladan:

- meva sabzavot – 61.6 mln.\$.
- to'qimachilik mahsulotlari – 41.4 mln.\$.
- spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlari – 27.0 mln.\$.
- metall va undan tayyorlangan buyumlar – 22.5 mln.\$.
- kalava ip – 19.6 mln.\$.
- oziq-ovqat – 14.5 mln.\$.
- transport va ehtiyot qismlar – 11.6 mln.\$.
- hayvonlar uchun ozuqa mahsulotlari – 5.9 mln.\$.
- boshqa mahsulotlar – 20.7 mln.\$.

Viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari 100 dan ortiq mamlakatlar bilan olibborilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida undagi tarkibiyo'zgarishlar ham jadallashadi va bu investitsiya faoliyatiga yangicha yondashuvni taqoza etmoqda. Ushbu yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqmoqda:

- Investitsiya jarayonini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish:
- Investitsiya jarayoniga korxonalar,tashkilotlar, aholi jamg'armalarini to'laroq jalb etish va ulardan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining jadal sur'atlarini saqlab qolish uchun foydalanish:
- Chet el kapitalining kirib kelishi uchun investitsiya muhitini yanada qulaylashtirib boorish.

Albatta, investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish ancha murakkab jarayondir. Shuning uchun investitsiyalash jarayonini amalga oshirishda moliya tizimi muhim o'rin egallaydi. Moliyaviy tizim zamonaviy bozor iqtisodiyotida asosiy xizmatlar majmuini tashkil qiladi. Bank tizimining moliyaviy barqarorligi, ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi paytda mamlakatimizda moliya- kredit tizimi tadbirkorlar bilan ishlashning asosiy va barqaror vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu tizimni yanada mustahkamlash ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning tez sur'atlarda rivojlanishiga imkon yaratishda muhim rol o'ynaydi. Boshqa tomondan esa, bank tizimi orqali moliyaviy aktivlarning tezda pulga aylanishi va sug'urta tizimi orqali tavakkalchilikning taqsimlanishi moliyaviy shakldagi jamg'arma hajmini saqlab qolishga va ko'paytirishga imkon beradi. Moliya bozorining rivojlanishi va moliyaviy dastaklardan

foydalanish orqali xo'jalik ob'yektlari tavakkalchilik qilishga va jamg'arma to'plash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Barqaror va sog'lom moliyaviy tizimning rivojlanishi investitsiyalashning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Real investitsiyalardan samarali foydalanish orqali korxonalarda iqtisodiy jarayonlar moliyaviy sog'lom tashkil etilishiga ham hal qiluvchi darajada bog'liq. Investitsiya xarakteridagi qo'yilmalarning kutilayotgan samaradorligini moliyaviy menejmentning zamonaviy usullarini qo'llagan holda baholash, investitsion jarayon ustidan muntazam monitoring faoliyatini amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Korporativ boshqaruv tamoyillari keng joriy etilishi bu jarayonda turli iqtisodiy sub'yektlar manfaatlari uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Makro va mikro darajalarda investitsiyalarni moliyalashtirish mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasini rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoriga bog'liq holda takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim xususiyati – xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish va biznes muhitini yanada yaxshilash borasidagi ishlarning izchil davom ettirilishidir. Ayniqsa, keying yillarda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik xujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shuidoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Investitsiya faoliyatini rivoji uchun uning omillarini ilmiy tahlil qilish lozim.

Bunday tahlil mablag'lar yo'nalushining eng maqbul usulini tanlash va kelajakda har bir hududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash imkonini beradi. Iqtisodiy o'sishga erishishda nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalash uchun birinchi navbatda shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarni tanlash lozimki, ular tez xarajatlarni qoplashi, yuqori darajada iqtisodiy va ijtimoiy samara bera olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyatitog'risida." O'RQ-598-sonli. 2019.25.12.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar srategiyasi to'g'risida" 2017.8.02.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "O'zbekiston Respublikasining 2021-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4937-sonli. 2020.28.12.